

AN'ANAVIY VA MASOFAVIY TA'LIMNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

Azimova Sarvinoz Jahongir qizi

2221 -guruh talabasi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy rahbar: **Avezmetov Jahongir**

Biz yashayotgan tezkor zamonda ilm olish asosiy maqsadga aylangan. Chunki bilim olish orqali insonning dunyo qarashi, bilim salohiyati kengayib, kelajakda foydali va kerakli kadr bo'lib yetishadi. Dunyo miqyosida yaratilayotgan ta'lim tizimidagi imkoniyatlar barcha o'quvchi-talabalar uchun mafaatli bo'lmoqda va ular o'qitish tizimidagi o'zgarishlarga, tizimning texnologik jihatdan ham boyishiga ijobiy javob sifatida turli yo'nalishlardagi samarali yutuqlarini taqdim etib kelishmoqda. Qolaversa, bugungi kunda o'qitish timining an'anaviy va masofaviy usullari ham o'quvchilarga tadbiq qilingan va amaliyotda qo'llanilyapti.

Barchamizga tanish bo'lgan an'anaviy ta'limning juda ko'plab qulayliklari va afzalliklari mavjud. An'anaviy ta'lim tizimining asosiy yutuqlaridan biri: u bilimni sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Misol sifatida aytadigan bo'lsak, an'anaviy ta'limda o'qish tizimini anglab olish uchun ko'nikma olish osonroq kechadi. Chunki o'qituvchi tomonidan o'qitilayotgan mavzu o'quvchi tomonidan yuzma-yuz tarzda qabul qilinishida tez yodda qoladi. Ushbu vaziyatda miyamizga ayan o'sha ustozning tovush tembri, tovushning kuchi, jismoniy harakatining davomiyligi va ko'z bilan aloqa qilish (ing. tilida - eye contact) kabilar miyamizga kuchli signal bo'lib yetib boradi va aynan yuqorida sanab o'tganlarimiz bilan birgalikda xotiramizga muhrlanadi. An'anaviy ta'limda o'quvchilar bir-biri bilan bemalol fikr almasha oladi, ko'pchilik oldila o'z fikrini to'liq va ravon bildiradi olishni o'rganadi. Ular bilan guruhlarda ishlash, turli xildagi loyihalar yaratish va boshqalar bilan

muloqot jarayonida yangi bilimlarga ega bo'lish kabi imkoniyatlatga ega bo'lishadi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan yutuqlar va samaradorliklarga qaramay, ushbu o'qitish usulida ham kamchiliklar bor. Masalan, an'anaviy ta'limda qabul qilish samarali kechadi, lekin bu usul bizda "xotira maktabi"ni keltirib chiqaradi. Ya'ni o'quvchi ko'proq ustoz tomonidan berilgan bilimni eslab qolishga harakat qiladi, u mustaqil ta'lim faoliyatidan uzoqroq bo'ladi. Ushbu ta'limda masofaviy tizimdan farqli o'laroq moliyalashtirish ham kata rol o'ynaydi va u o'quv pulidan tashqari ortiqcha mablag' va vaqt ham talab qiladi.

Texnika asrida ta'lim tizimi ham ortda qolayotgani yo'q. Oxirgi 3 yil ichida O'zbekiston o'qitish tizimiga kirgan va barchamiz uchun tanish bo'lgan masofaviy

ta'limning afzalliklari ham talaygina. Jumladan, u vaqtimizni tejaydi, ya'ni o'quv dargohiga borish uchun alohida vaqt talab qilmaydi. Qolaversa, biz online o'qish usulida ta'lim vaqtini o'zimiz tanlashimiz, faqat o'qish bilan chegaralanib qolmay, ish bilan ham shug'ullanishimiz mumkin. Masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan ham afzalliklarga ega. Online darslar offline darslardan birmuncha arzonroq bo'ladi. Dunyodagi ko'plab korxonalar aynan shu usul orqali o'z chiqimlarini kamaytirib, daromadlarini bir necha barobar oshirishga erishmoqdalar. Ushbu ta'lim usulida siz o'zingiz hohlagan hududda ta'lim olishingiz mumkin bo'ladi. Ya'ni O'zbekistonda yashab turib ham chet eldagi universitetlarda yoki maktablarda o'qishingiz mumkin. Masofaviy ta'limning yutug'i shundaki, u o'quvchini mustaqil ta'limga qaratadi, yodlashga emas, fikrlash orqali o'rganishga yo'naltiradi. O'z vaqtida butun dunyoni egallab olgan Covid-19 O'zbekiston ta'lim tizimiga ham ta'sir qildi. Pandemiya davrida maktablar, oliy o'quv yurtlari online ta'limga o'tkazildi. Ma'lumki, bu barcha uchun yangilik bo'ldi va o'zi bilan bir qancha qiyinchiliklar tug'dirdi. Ko'plab chekka hududlarda internet tezligining pastligi, undan foydalanish uchun qo'shimcha narx to'lanishi, kerakli texnikalarning yetrali emasligi va o'quvchilar ulardan foydalishni bilmasligi, darslarda o'z vaqtida qatnasha olaslik va dars davomida chalg'ish kabi muammolar yuzaga keldi. O'qituvchi o'quvchi bilan yaxshi aloqa o'rnatolmagani sabab, bilim samaradorligining tushish holatlariga ham guvoh bo'ldik. Ko'pgina o'quvchilar masofaviy ta'lim usuliga nisbatan ishonchsizlik bildiradi, internet aloqasi yomonligi sabab o'qituvchi bergan ma'lumotlari to'liq qabul qila olmaydi va bu nomaqbullikni keltirib chiqaradi.

Eng muhimi sifatli va samarali bilim olishdir. Bu samaradorlikni ko'paytirish maqsadida qilinayotgan islohotlar ham bir qancha. Shu jumladan, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim haqida aytgan quyidagi fikrlari ham so'zimizning isbitidir: "Ta'lim-tarbiya - bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qanday bilim olish o'zimizga, intilishimizga, tirishqoqligimizga bog'liq, hoh u an'anaviy bo'lsin, hoh masofaviy. Kim uchundir an'anaviy ta'lim, kim uchundir masofaviy ta'lim afzal. O'quvchilar o'zlarning ko'nikmalaridan kelib chiqib, o'zlari istagan ta'lim turini tanlashlari mumkin. Qaysi ta'lim usulida o'qishdan qat'i nazar, eng muhimi, kuchli va foydali kadr bo'lib yetishish va ta'lim tizimida kelajak avlod uchun manfaatli, samarali bo'ladigan yanada ko'proq islohotlarni yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://fayllar.org>
2. <https://www.samdu.uz>
3. Aliyevna, Sodikova Sevinch. "Historical Approach to the Study of Ideographic Dictionaries in Western Linguistics." JournalNX 7.04 (2021): 61-64.
4. Sevinch, Azimova, and Uzoqova Xayriniso. "FRAZEOLOGIK LUG 'ATLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR." Scientific Impulse 1.8 (2023): 304-307.
5. Qodirov, E., Sodiqova, G., Ismailov, D., & Raxmonqulov, I. (2022). GROWING RICE IN MEADOW AND SWOG SOILS. Science and Innovation, 1(8), 286-291.